

Abdulla Mirzo



Abdulla Mirzo

(1433-1451)

(1450-1451)

Movarounnahr hukmdori (1450-1451). Temuriylardan. **Ulug'bek**ning ukasi **Ibrohim Mirzoning** kenja o'g'li. Otasi vafotidan so'ng, Fors viloyatiga hokim qilib tayinlangan. Biroq u hali yosh bo'lgani sababli davlat ishlarini onasi **Ruqiya begim** bilan otabek **Shamsiddin Sheroziy** boshqargan. 1447 yil amakivachchasi **Sulton Muhammad Mirzo** Fors viloyatini bosib olgach, Hirotga qochib kelgan. 1448 yilda esa amakasi **Ulug'bek**ning xizmatiga kirib, uning qiziga uylangan. **Abdullatif**dan keyin Movarounnahr taxtiga o'tirgan. Ammo toju taxt da'vogari **Sulton Abu Said** Mirzoga qarshi jangda halok bo'lgan.

2023-10-30 00:09:24